ISNN:2181-1296



SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

№ 2/2 (138)
2023

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2023-yil, 2-son 2-seriya (138) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Filologiya, Huquqshunoslik, Pedagogika, O‘qitish metodikasi, Psixologiya, Sotsiologiya, Siyosiy fanlar

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R. I. XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI: **H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent A. M. NASIMOV, t.f.d., professor**

TAHRIRIYAT KENGASHI:

S. S. G‘ULOMOV	- O‘zFA akademigi
M.Q. MUXIDDINOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
SH.A.HASANOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
S.A.KARIMOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
N. Sh. SHODIEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
M.X.LUTFULLAYEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
HIROAKI HUZIIE	- Osaka universiteti professori (Yaponiya)
A.B.PARDAYEV	- fil.f.d., professor (SamDU)
SH.Y.ZIYODOV	- fil.f.d., dotsent (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi)
J.Y.YAXSHILIKOV	- f.f.d., professor (SamDU)
SH.SH.NEGMATOVA	- f.f.d., professor (SamDU)
N.U.ARABOV	- i.f.d., professor (SamDU)
B.E.ERGASHEV	- t. f. d., professor (SamDU)
B.S.G‘OYIBOV	- t.f.d., (SamDU)
D.Q.USMONOVA	- i.f.n., dotsent (SamDU)
F.SH.RASHIDOVA	- t.f.f.d., dotsent (SamDU)
O.S.YUSUPOVA	- f.f.n., dotsent (SamDU)
O.S.QODIROV	- p.f.n., dotsent (SamDU)
S.I.MUXIDDINOV	- t.f.f.d., (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun **- 5584**

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

MUNDARIJA	
Atayeva G.R. *O‘smirlar mehnat faoliyatini oila va maktabda o‘zaro muvofiqlashtirishning psixologik samaradorligi……*	4-8
Yakubova M. *Nemis sayohatchisi xans-xermann fon shvaynitsning esdaliklaridan samarqand tarixiga oid ayrim lavhalar……*	9-14
Marufov E.U. *Talabalarning ingliz tili fonetik kompetensiyasini rivojlantirishdagi qiyinchiliklar……*	15-20
Aliyev O.O. *O‘zbekistonda axborot xavfsizligi siyosatining huquqiy asoslarini shakllanishi va rivojlanishi*	21-29
Mirzayev R.I., Ibodullayev S.R. *Korrupsiya va uning namoyon bo’lish shakllari……*	30-34
Rahimova G., Kiyamova S. *Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga Alisher Navoiy hayoti va ijodiini o‘rgatishda “Muammoli ta’lim” metodidan foydalanishning ahamiyati……*	35-42
Abdullayeva G.R. *Boshlang‘ich sinf tabiatshunoslik darslarini adekvat modellashtirish tizimini takomillashtirish*	43-47
Ochilova G.U. *Some cases of transmission of kinship terms in uzbek and english……*	48-52
Кадымова Д.Р., Рахмонкулова Ш.О. *Особенности реализация мотива сна в русской и зарубежной литературы (На примере произведений эпохи античности и средневековья, А.С. Пушкина «Евгения Онегина», И. А. «Обломова» Гончарова И «Преступления и наказания» Ф. М. Достоевского)……*	53-60
Radjabova D.N. *Rossiya sharqshunosligi ilmiy maktabi va o’rta osiyo tarixi masalalarining o’rganilishi……*	61-65
Мамасолиев И.Ф., Усманова Н.К. *Оригинальность баллад в.а. жуковского в русской словесности……*	66-71
Xayriyev I. *Aql, hissiyot va iroda integratsiyasi……*	72-76
Kenjayeva M.A. *Ona tili fanini o`qitishda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda ta’lim exnologiyalardan foydalanish……*	77-81
Kuldashev M., Saidov U. *Jamoat xavfsizligini ta’minlashda yo‘l-transport hodisalarini oldini olishning o‘rni……*	82-86
Uzoqov M.F. *Attraktiv munosabatlarning o‘rni va pedagogik taxlili hamda uni hozirgi bosqichda maktabgacha ta’lim tizimida qo‘llash xususiyatlari……*	87-91
Xasanova M.N. *Elektron platforma vositasida muhandislik grafikasi fanini o‘qitishda talabalarning grafik ishlari sifatini rivojlantirishning pedogogik tavsifi……*	92-96
Аллаярова Н.Я. *Роль образовательных компетенций в развитии гендерно-равноправного мышления учащихся……*	97-101

Негматова Н.Н. *Принцип учета особенностей родного языка учащихся при обучении русскому языку в полиэтнической среде, методы и их классификация*……	102-106
Панжиева Н.Н. *Роль и значение развития навыков критического мышления у будущих учителей информатики* ……	107-116
Усманова Н.К., Сайфиддинова М. *«Мир детства» в философско-художественном и идейном воплощении в творчестве А.Платонова*……	117-122
Turniyazova R.B. *Emotional causation*……	123-128
F.F.Xatamov *Huquqning regulyativ funksiyasi va shaxs mas'ulligi*……	129-132
Xashimov Sh.J. *Milliy turizm va o'zbekistonning xalqaro imidji yuksalishining ijtimoiy-falsafiy masalalari*…….	133-137
Xushmurodova Sh.Sh. *Impact of bilingualism on third language acquisition and bilingual teaching*……	138-146
Mustafayeva M.SH. *Aleksitimiya fenomeni va uning namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari*……	147-151
Кадымова Д.Р., Ибрагимова Э.О. *Роль женщины и ее и судьба в произведении Л.Н.Толстого «анна каренина» и «госпожа бовари» .Флобера*……	152-158
Xoliqulov A.Y. *Ilk o'rta asrlar sug'dda bozorlar taraqqiyoti*……	159-163
Azizkulov A., To'g'izov N. *Boburiylar saltanatida ta'lim tizimi*……	164-168
Baysariyeva Ch.U. *Elektron ta'lim resurslari (etr) yordamida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish usullari, shakllari va vositalari*……	169-175
Amonturdiyeva Sh.R. *Diniy matnlarda mustaqil so'z turkumlarining ifodalanishi*……	176-179
Mustafayev Sh.N. *O'zbekiston oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashning artpedagogik asoslari*……	180-184
Rustamova Sh.Sh. *Investigating communicative competence as a vital of pedagogical category*……	185-189
Jumanov Sh. *Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi faoliyatining funksional pedagogik tahlili*.....	190-194
Tuxtayeva Sh.M. *Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga matematika darslarida integratsiyalashgan ta'limni tashkillashtirish haqida*.....	195-200
Mualliflarga	

UO‘K:342.1 **DOI:** https://doi.org/10.59251/2181-1296.2023.v2.138.2.2211

HUQUQNING REGULYATIV FUNKSIYASI VA SHAXS MAS’ULLIGI

F.F.Xatamov
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada, huquqning regulyativ funksiyasi shaxs mas’ulligini belgilashga muhim e’tibor qaratailishi va mas’ulliksiz boshqaruv, shaxsning jamoadagi o‘rni unga yuklatilgan mas’ullik hajmi orqali belgilanishi hamda boshqaruv ishlarida mas’ullik hajmi barchada bir xil, barobar bo‘lolmasligi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: мas’ullik, hayotiy, mas’ullik, maxsus huquq, ma’muriy huquq, -konstruktivlik, kreativlik, ijobiylik, uzluksizlik, rad etilish, huquq, metafizik, subyektiv baholash, fikrlash.

Регулирующая функция закона и личная ответственность

Аннотация. В данной статье показано, что регулятивная функция права заключается в том, чтобы обратить внимание на определение индивидуальной ответственности и управления безответственности, роль человека в коллективе определяется размером возложенной на него ответственности, а размер ответственности в управлении не может быть одинаковой для всех.

Ключевые слова: ответственность, жизнь, ответственность, специальное право, административное право, конструктивность, творчество, позитивность, преемственность, неприятие, право, метафизическое, субъективная оценка, мышление.

Regulatory function of law and personal responsibility

Abstract. This article shows that the regulatory function of law is to pay attention to the definition of individual responsibility and management of irresponsibility, the role of a person in a team is determined by the amount of responsibility assigned to him, and the amount of responsibility in management cannot be the same for everyone.

Key words: responsibility, life, special law, administrative law, constructiveness, creativity, positivity, continuity, rejection, law, metaphysical, subjective assessment, thinking.

Huquq falsafasi pozitivlikni ma’lum bir huquq tizimida qarashga undaydi, ushbu tizimga xos xususiyatlar ijtimoiy-huquqiy borliqqa qanday regulyativ ta’sir etayotganini (yoki ta’sir etmayotganini) obyektiv o‘rganishga yordam beradi. Huquq “o‘zi o‘zi uchun mavjud” voqyelik emas, u o‘zidan tashqaridagi hayotni, ya’ni ijtimoiy borliq, ushbu borliqdagi munosabatlar, shaxs va jamiyat, davlat, boshqaruv idoralari o‘rtasidagi koordinasion va subordinasion aloqalarni tashkil etish, yo‘lga qo‘yish uchun mavjuddir. Uning ushbu tashkiliy va regulyativ funksiyalari pozitiv bo‘lishi, ma’lum bir muammolarni ijobiy hal etishga yordam berishi shart, aks holda huquqning o‘zi ijtimoiy ahamiyatini yo‘qotadi. Shuning uchun huquqshunoslar huquq fenomenini o‘z ichiga oluvchi huquqiy tizimni: “davlatning turli me’yoriy hujjatlarida, qonunlarida ifoda etilgan obyektiv (pozitiv) huquqning o‘zi; huquqiy ideologiya (huquqiy ongning faol tomoni); sud (yuridik) amaliyot” bilan bog‘lab qarashga undaydilar[1]. Demak, huquq fenomeni haqida gap ketganida uning ushbu tizimlar bilan bog‘liq jihatlariga e’tibor berish, undagi pozitiv jihatlarni ular orqali aniqlashni taqozo etadi. Obyektiv pozitiv huquq davlat va uning boshqaruv institutlarining me’yoriy hujjatlarida, qonunlari va normativ aktlarida ifoda etilishi ilm-fanda aksioma sifatida qabul qilingan. Biroq bu davlat va uning boshqaruv institutlari qabul qiladigan me’yoriy-huquqiy hujjatlarning

mutlaq obyektivligini, mutlaq to‘g‘riligini hali isbotlamaydi. Ba’zi me’yoriy-huquqiy hujjatlar gipotetik yoki prognostik xususiyatga ega bo‘lishi, ba’zilari esa umuman bajarilmasligi mumkin. Bunday holda huquqning pozitiv voqyeligi nima bo‘ladi? Bunday qonun ijodkorligini qanday baholash kerak bo‘ladi? Bizning fikrimizcha, birinchidan, har qanday qonun, me’yoriy-huquqiy hujjatlar ma’lum bir ijtimoiy-huquqiy vazifalarni bajarishga qaratilgani uchun ijobiy hodisa sifatida baholanishi kerak. Ha, ushbu hujjatni ishlab chiqish jarayonida subyektivizmga berilgan, ma’lum bir omillar yetarli hisobga olinmagan va huquq fenomenining roliga ko‘proq urg‘u berilgan yoki boshqaruv institutlarining faolligiga ortiqcha ishonilgan bo‘lishi mumkin. Huquqiy-me’yoriy hujjatlarning kerakli natijaga olib kelmaganining boislari rang-barang, xilma-xil bo‘lishi, goho ichki va tashqi omillar ta’siri e’tiborga olinmay qolishi obyektiv holdir. Qanday bo‘lganida ham, me’yoriy-huquqiy hujjatlar ijtimoiy borliqdan, hayotdan ustun tura olmaydi, shuning uchun ularni ijtimoiy borliqqa, hayotga xizmat qiluvchi vositalar, deb hisoblash darkor.

Hayot esa mutlaq haqiqatga qurilmaydi, uning sosiodinamik xususiyatlari barcha vositalarga, shu jumladan, me’yoriy-huquqiy hujjatlarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi, kerak bo‘lganida ularni normativ hujjatlar reyestridan chiqarib olishga undaydi. Ikkinchidan, ijtimoiy borliqqa, boshqaruv faoliyatiga va inson-jamiyat-davlat munosabatlariga yetarli ijobiy ta’sir etmaydigan me’yoriy-huquqiy hujjatlar, qonunlar ma’lum bir ma’noda huquqdagi bo‘shliqni to‘ldirgani bilan e’zozlidir. Samarasi kam qonunlardan ko‘ra, huquqdagi bo‘shliq jamiyatga, davlatga qimmatga tushadi, chunki bu bo‘shliqdan destruktiv kuchlar darrov foydalanib qoladi, boshqaruv ishlarini, institutlardagi subordinasiya aloqalarini o‘z qo‘llariga olishga intilishini siysiy-tarixiy bosqichlar tasdiqlaydi.

To‘g‘ri, yetarli samara bermaydigan me’yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilmaslik, qonun ijodkorligida “yetti o‘lchab bir kes” naqliga amal etish lozim, agar shunday hujjat qabul qilingan bo‘lsa, uni takomillashtirish yoki undan voz kechish maqsadga muvofiqdir. Uchinchidan, me’yoriy-huquqiy hujjatlar, qonunlar hali davlatning, boshqaruvning to‘la o‘zi emas, balki ularning bir tomonidir. Shuning ushbu tomonni obyektning umumiy maqsadiga muvofiqlashtirish imkoni mudom mavjuddir. Bizning mavzumizda umumiy maqsad boshqaruv institutlarining to‘laqonli, samarali va kreativ ishlashidir.

Kreativlik yaratuvchanlikka qaratilgan faollikni, ijtimoiy taraqqiyot manfaatlarini nazarda tutgan izlanishlarni anglatadi. Bu kreativlik boshqaruv institutining to‘laqonli va samarali faoliyat olib borayotganini ifodalaydi. Aslida huquqning pozitivligi ham kishilarning, jamiyatning to‘laqonli, samarali va kreativ yashayotganida namoyon bo‘ladi. Buni huquqshunoslar huquqning regulyativ funksiyasiga yo‘yadilar. Ha, huquqning regulyativ funksiyasi davlat va har qanday instititutlarga boshqaruv mexanizmlariningoperativ va samarali ishlashiga yordam beradi, buni inkor qilib bo‘lmaydi. Lekin boshqaruv faoliyatining samarali kechishi faqat huquq regulyativ funksiyasining mahsuli, natijasi emas. Hatto subordinasiya ham huquqning regulyativ aralashishi bilan cheklanib qolmaydi, unda boshqarishning barcha vositalari va mexanizmlari qatnashadi.

Pozitiv huquq va uning boshqaruv faoliyatiga ta’siri ustida gap ketganida shaxsning jamiyat, kishilar, mehnat jamoasi oldidagi mas’ulligi, bu mas’ullikning iroda, erk va qiziqishlar bilan bog‘liqligi alohida ta’kidlanishi zarur. Huquqning regulyativ funksiyasi shaxs mas’ulligini belgilashga muhim e’tibor qaratadi. Mas’ulliksiz boshqaruv yo‘q, shaxsning jamoadagi o‘rni unga yuklatilgan mas’ullik hajmi orqali belgilanadi. Pozitiv huquq ushbu mas’ullik hajmini, uning doiralarini va mexanizmlarini belgilab beradi. Boshqaruv ishlarida mas’ullik hajmi barchada bir xil, barobar bo‘lolmaydi, kimgadir ular ko‘proq beriladi, kimlardir ularning amaliy ijrosi bilan shug‘ullanadi. Mas’ullik hajmi qaror qabul qiluvchida kengroq, ko‘proq bo‘ladi. Bu hayotiy, tabiiy hol. Shu bilan birga mas’ullikning ayrim bir kishilargato‘la berilishi boshqarishni maxsus huquq

(masalan, ma’muriy huquq)ga taalluqli voqyelikka aylantiradi. Demak, pozitiv huquq mas’ullik elementi orqali maxsus huquqqa aylanadi. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, pozitiv huquq ijtimoiy hayotning o‘zidan kelib chiqadigan, urf-odatlar, axloqiy imperativlar bilan belgilanadigan tabiiy huquqdan farq qiladi, u maxsus institutlar va davlat tomonidan ijtimoiy zarur va foydali norma sifatida qabul qilinadi, kishilar hayotiga, munosabatlariga, sosiumga joriy etiladi[2]. Shuning uchun mazkur normativlarda, qonunlarda ma’lum bir kamchiliklar, takomilini topmagan qoidalar bo‘lsada, ular jamiyat tomonidan ijobiy narsa sifatida qabul qilinadi.

Agar jamiyat, davlat tomonidan qabul qilinadigan me’yoriy-huquqiy hujjatlarni pozitiv voqyelik deb atasak, mazkur hujjatlar keltirib chiqaradigan natijalar ham pozitiv bo‘lishi darkor. Bois (hujjat, qonun) bilan natija (yutuq, xulq atvor) mohiyatan aynan, ya’ni ijobiy narsadir. Ming afsuski, real hayotda ular mudom aynan bo‘lavermaydi. Hujjatlar qanchalik pozitiv ahamiyat kasb etmasin, ularning to‘la amal qilishiga xalaqit beradigan obyektiv va subyektiv to‘siqlar paydo bo‘laveradi.

Birorta qonun to‘la-to‘kis amal qilgan, mutlaq pozitiv natijalarga olib kelgan emas, bunday hujjat bo‘lganini jamiyatlar bilmaydi. Agar biz qonunlarni, hujjatlarni natijalariga qarab baholaydigan bo‘lsak, bois funksiyalarini bajaruvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlarga ijtimoiy-huquqiy borliq nuqtai nazaridan bir qator talablar qo‘yishimiz zarur bo‘ladi. Chunki bunday hujjatlar shunchaki ermak uchun qabul qilinmaydi, ular kishilar va sosium hayotidan joy olishi, real voqyelikka aylanishi kerak. Bu talablarga, bizning fikrimizcha, quyidagilarni kiritish mumkin:

1. obyektivlik;
2. dolzarblik;
3. reallik;
4. zarur mexanizmlar bilan ta’minlanganlik;
5. konstruktivlik;
6. kreativlik;
7. ijobiylik;
8. uzluksizlik;
9. rad etilish.

Obyektivlik huquqqa qo‘yiladigan bosh talabdir. “Huquq anatomiyasi” (S.S.Alekseyev) ushbu talabga quriladi va uning xususiyatlariga muvofiq amal qiladi. Shu bilan birga, obyektivlik huquq tayanadigan, barcha talablarida undan kelib chiqadigan, bazaviy ahamiyatga ega reallikdir. Huquq fenomenining qanday bo‘lishini, hujjatlarning qanday ifodada kelishini, normativ talablarning qanday mexanizmlar vositasida bajarilishini ana shu reallik belgilab beradi. Bu reallik jamiyat barqarorligi, davlat ehtiyojlari, taraqqiyot talablari, boshqaruv xususiyatlari kabilardan iborat. Demak, me’yoriy-huquqiy hujjatlar, qonunlar kimningdir subyektiv xohishi, egoistik irodasi bilan qabul qilinmaydi, ular yuqoridagi talablar ifodasi sifatida kelganidagina kerakli natijalar beradi.

Shu bilan birga, bu o‘rinda yetakchining, rahbarning roli masalasi o‘rtaga chiqadi. Uning roli, mas’ulligi, yetakchilik xususiyatlari qayerga ketadi, haqiqatan ham, uning faoliyati obyektivlik talablariga muvofiq keladimi, degan savollar uyg‘onadi. Jamiyat, davlat, sosiumdagi munosabatlar ma’lum bir barqaror boshqarish tizimlarini taqozo etadi. Bu tizim boshqarish uchun mas’ullikni o‘z ustiga olgan rahbarsiz, tashkilotchilik salohiyatiga ega yetakchisiz bo‘lishi mumkin emas[3]. Boshqarishdagi ziddiyatlar ko‘pincha jamoa bilan yetakchi, rahbar munosabatlariga, simpatiya va antipatiyalarga borib taqaladi. Ularni har doim ham me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan regulyasiya qilib bo‘lmaydi, bu o‘rinda jamiyatda amal qiladigan va obyektiv normalarga aylangan axloqiy imperativlar, urf-odatlar, burch haqidagi tasavvurlar muhim rol o‘ynaydi. Huquqshunoslikda “tabiiy

huquq” deb ataladigan ushbu normalar obyektivlikning eng ta’sirchan mexanizmlarga ega ekanini ko‘rsatadi. Obyektivlik ko‘pincha ijtimoiy taraqqiyot qonunlarining ifodasi sifatida keladi. Bu qonunlar xalq manfaatlari, ijtimoiy munosabatlar dinamikasi, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, turli ehtiyoj va talablarning majmuasi, ijtimoiy ongdagi o‘zgarishlar, siljishlar kabilarda namoyon bo‘ladi[4]. Obyektiv hayot va subyektiv omillar uyg‘unligi, ularning rang-barang vaziyatlarda o‘zgarib, evrilib, goho to‘xtab, hatto orqaga qaytib turishi me’yoriy-huquqiy hujjatlarga ta’sir etsa-da, ulardagi barqarorlikni yo‘q qilolmaydi. Qonunlar barqarorligi bilan obyektiv borliq talablariga javob bera oladi, tinmay o‘zgaradigan hujjatlar jamiyatda, ijtimoiy munosabatlarda boshboshdoqlikni, xaosni keltirib chiqaradi. Obyektiv hayotda shunday barqaror narsalar, qadriyatlar mavjudki, me’yoriy-huquqiy hujjatlar ularni hisobga olishga majbur. Dolzarblik ijtimoiy hayotning dinamik xususiyatlaridan, borliqni o‘zgartirishga, takomillashtirishga bo‘lgan intilishlardan kelib chiqadi, jamiyatdagi transformasiyaga moyillik, yangi-yangi narsalarning yaratilishi, boshqarish usullari va mexanizmlarining murakkablashuvi kabi omillar uni, ya’ni dolzarblikni zaruriyat sifatida qabul qilishga undaydi. Dolzarblik hayot kun tartibiga qo‘yayotgan muammoga munosabat, uning yechimlarini izlashdir. Muammoga munosabat subyektning fuqarolik pozisiyasini, muammoni tushunish va unga yechim topish qobiliyatini ifoda etadi. Muammoni anglash boshqa, unga kreativ munosabat boshqa. Metafizik talqinda muammoga munosabatni subyektiv baholash, fikrlash va mushohadalarga yo‘yish mumkin, ushbu imkoniyatning kishi miyasida, ongida aks etishi mudom nafaqat miya tuzilishiga, shuningdek shaxsiy hayotiy tajribaga, bu tajribani gnoseologik sintezdan o‘tkazishga bog‘liq bo‘ladi.

Bu o‘rinda, bizning fikrimizcha, rus faylasufi I.A.Ilinning metafizik mushohadalarning shaxsiy hayotiy tajriba bilan bog‘liqligi yoki obyekt bilan subyektning yaqinligi haqidagi fikrlarini keltirish mumkin. U yozadi: “Falsafa haqida mulohaza yuritish uchun u bilan yashamoq zarur; kim falsafa predmeti bilan yashay olmas yoki yashashni istamasa, falsafaning o‘zi haqida ham, uning predmeti haqida ham xulosa chiqarishdan o‘zini tiyishi shart. Demak, falsafa, o‘z mohiyati bo‘yicha, nafaqat hayotga begona, balki o‘z predmeti va manbai orqali u bilan bog‘liq. Falsafa qanday anglanmasin, u mudom bilim bo‘ladi. Ammo bilim obyekt va subyekt o‘rtasidagi uchrashuv yoki yaqinlik, yoinki, birikish shaklida kelishidan boshqacha bo‘lishi mumkin emas”[5].

Gap falsafaning shaxsiy hayotiy tajriba bilan bog‘liqligi ustida ketayotgan bo‘lsa-da, uni har qanday metafizik, shu jumladan, huquq haqidagi metafizik mulohazalarga ham, taalluqli deyish mumkin. Hatto huquq haqidagi metafizik mushohadalarning hayotiy tajriba bilan uzviy bog‘liqligi ilmiy falsafadagidan ham ko‘proqdir. I.A.Ilin nazarda tutgan shaxsiy hayotiy tajriba falsafa predmetini mudom real hayot, u kun tartibiga qo‘yayotgan dolzarb muammolar bilan bog‘liqligini mutlaq zaruriy shart qilib qo‘yadi, bu bilan u har qanday spekulyativ, spiritualistik va transsendental yondashishlarga joy qoldirmaydi.

Adabiyotlar

1. Алексеев С.С. Право: азбука теория философия: Опыт комплексного исследования. - Москва: Статут, 1999. С. 47.
2. Алексеев С.С. Право: азбука теория философия: Опыт комплексного исследования. - Москва: Статут, 1999. С.31 32.
3. Политическая психология. Москва: Академ. проект, Екатеринбург, Деловая книга, 2003. С.406 410.
4. Haydarov X. Islohotlar qonuniyati. Toshkent: O‘zbekiston, 2010. 17- 21 b.
5. Ilin I.A.Falsafa va hayot//Tafakkur, 2018, № 4. 24 b.